



SO'Z YODLASHNING SAMARALI USULLARI

Turg'unova Hilolaxon Anvarjon qizi
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida so'z yodlash va uning samarali usullari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Ingliz tili, usul, so'z, pedagogik tadqiqot, lug'at, muammo, muloqot, so'zlashuv.*

Kirish. Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Har bir inson chet tilini: o'qish, sayohat qilish, ishslash va shunga o'xshash maqsadlarda o'rganadi. Xorijiy tillarni o'rganish nufuzli ta'lif dargohlarida o'qishga, rivojlangan mamlakatlarda ishlab, o'z malakasini, tajribasini oshirishga, turli xil davlatlarda sayohat qilishga yordam beradi.

Har qanday xorijiy tilni o'rganishdagi eng katta muammo bu so'z yodlashdir. Negaki bu jarayonda siz minglab yangi so'zlarni o'rganishingiz talab etiladi. Sizning so'z boyligingiz tilni qay darajada bilishingizni belgilaydi va kelajakda boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlaringizga yo'l ochuvchi kalit hamdir. Shu o'rinda ingliz tilini o'rganayotgan kishi uchun nechta so'zni yoddan bilish kerakligini ham aytib o'tish lozim. Ma'lumotlarga ko'ra, qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, kundalik muloqot uchun 1200-2000 ta so'zni bilish talab qilinadi ingliz tilida ham muloqot qilish uchun shuncha so'zni bilish kifoya bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Pedagogik tadqiqotlarni o'rganib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish jarayonida ingliz tili fanidan test savollarini muvaffaqiyatl yechish uchun 4500-5000 ta so'z bilish talab qilinadi. Xorij oliygohlariga kirish uchun topshiriladigan IELTS imtihonida yuqori ball olishni xohlagan o'quvchi kamida 7000 ta so'zni mukammal bilishi kerak . Ingliz tilida faoliyat ko'rsatuvchi olimlar , yozuvchilar va shoirlar 12 000- 15 000 ta so'zdan foydalana olishlari aniqlangan. Xo'sh, qanday qilib biz ingliz tilidagi so'zlarni tez va oson yodlashimiz mumkin? Keling, avval biz so'z yodlashimizda paydo bo'ladigan muammolarni bilib olaylik. Deyarli har bir o'rganuvchi ingliz tilidagi so'zlarni yodlash bilan bog'liq muammolarga duch kelgan. Ikkinci til safatida o'rganilganda ingliz tilidagi so'zlarni yodlab olish juda ko'p mehnat talab qilinishi mumkin. Ayniqsa hozirgi kunda turli xil mobil aloqa vositalari tufayli xotiramizning majburiyatlari kamayib ish faoliyati susaygan. Shu sababli ingliz tili o'rganuvchilari orasida so'z yodlash bilan bog'liq ko'plab muammolar yuzaga kelmoqda. Eng asosiy muammolardan biri bu so'zlarni uzoq vaqt eslab qola olmaslikdir. Masalan o'quvchi so'zlarni yod oldi ammo bir necha yoki haftdan so'ng so'zlar tezda esidan chiqib ketadi. Gap shundaki, bizning miyamiz ma'lumotni ishlatish yoki yo'qotish printsipi asosida ishlaydi. Ya'ni, agar biz



hamma narsani abadiy yodlab olsak, miya shunchaki bo'sh xotirasi yo'q kompyuter kabi haddan tashqari ko'payib ketishi mumkin edi. Shuning uchun, biz bolalar bog'chasidagi barcha do'stlarimizning ismlarini eslay olmaymiz, bu bizga kerak emas. Ammo xo'jayinning, eng yaxshi do'stning va davolovchi shifokorning ismlari ko'pincha talab qilinadi va shuning uchun ular xotirada qoladi. Miya keraksiz ma'lumotlarni juda tez olib tashlaydi. Ushbu jarayon "unutish egrisi"deb nomlanadi. Uni nemis psixolog German Ebbinghaus yaxshi o'rgangan. Olim unutish mexanizmlarini o'rganib chiqib, bir soat ichida o'rganilgan narsalarning 40 foizidan ko'prog'i xotirada qolishini, 10 soatda – 35 foizni, bir haftada – 20 foizdan oshmasligini aniqladi. Siz so'zlarni qanchalik zo'rg'a tutganingizning ahamiyati yo'q – mashq qilmasdan, 7 kundan keyin siz ularning 80 foizini unutasiz va bir necha yillardan keyin deyarli hech narsa sizning xotirangizda qolmaydi. Unda biz qanday so'zlarni uzoq vaqtga eslab qolishimiz mumkin?

Muhokama.

Boshqa tillarni o'rganish avvalo ularning so'zlarini yodlash bilan boshlanadi. So'zlarni yaxshi bilish, ularni to'g'ri talaffuz qilish va o'z o'rnilana foydalana olish insonga o'zi xohlagan tilida ravon muloqot qila olishiga sabab bo'ladi. Chet tili o'rganuvchilarining asosiy muammolaridan biri bu- so'z yodlash, ularni uzoq muddat eslab qola olmaslik va muloqotda so'zlardan foydalana olmaslikdir. Bu muammoga asosiy sabab: so'z yodlashda eskirgan usullardan foydalanish, misol uchun takrorlash usuli. Takrorlash usulidan foydalanim yodlangan so'zlar bir muddat yodda qoladi va vaqtlar o'tib xotiradan butkul o'chib ketadi. Yangi so'zni oson yodlash, muloqotda qo'llash va albatta xotirada uzoq muddatga saqlash uchun so'z yodlashning yangi va samarali usullaridan foydalanish zarur. Chet tilini o'rganayotganda, sizning so'z boyligingizni doimiy ravishda to'ldirish juda muhim. Biroq hamma ham bunga erisha olmaydi.

Nazariya. Darhaqiqat, har qanday xorijiy tilni o'rganishdagi eng katta muammo bu so'z yodlashdir. Negaki, bu jarayonda siz o'nlab yoki yuzlab emas, balki minglab yangi so'zlarni o'rganishingiz talab etiladi. Sizning so'z boyligingiz tilni qay darajada bilishingiz bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kelajakda boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlaringizga yo'l ochuvchi kalit hamdir. Shunisi aniqki, ingliz tilini qay maqsadda va qancha muddat davomida o'rganishidan qat'i nazar, siz, albatta, bir necha ming so'zni mustahkam o'zlashtirishingiz shart. Bu esa o'z-o'zidan bo'lavermaydi. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar ko'pincha so'z yodlashni qiyin va zerikarli ish deb biladi? Bizningcha, bunga sabab ilk chet tillarini o'rganish davridagi so'z yodlash uslublarining unchalik ilg'or va qulay bo'limganligidir.

Natija.

Quyida beriladigan bir nechta usullar bu mumammoga yechim bo'ladi.

1-usul. Daftar tutishga e'tibor berish kerak. Lug'at yoziladigan daftar iloji boricha o'zi bilan birga olib yurishga qulay bo'lishi kerak. Har xil rangli ruchkalardan



foydalanish so'zlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Har bir guruhga alohida rangdan foydalanish so'zni oson ajratib olishga yordam beradi. Misol uchun: sifat so'z turkumidagi so'zlar yashil rangda, fe'llar qora, otlar qizil rangda.

2-usul. Kartochkalarga yozib yodlash. Bu usul eng samarali usullardan biri, qisqa muddatda ko'p so'z yodlashga yordam beradi. Yangi so'zlarni kartochkalarga bir tarafga tarjimasini, ikkinchi tarafga so'zni o'zini yoziladi. Kartochkalar birma bir tortiladi, bilgan so'zlar chiqarib yuboriladi, bilmagan so'zlar esa qoladi. Qolgan so'zlarni yana tarjimasini topishga harakat qilinadi, kartochkalarni tortish oxirgi so'zni yodlamagungacha davom etadi.

3-usul. Stikerlardan foydalanish. So'zlarni stikerlarga yozib, ularni eng ko'p uchratadigan joyga yopishtirib qo'yish. Har safar qaralganda so'z yodga tushadi va bunga alohida vaqt ajratishni xojati qolmaydi. Agar so'zlar predmet, jihozlardan iborat bo'lsa, stikerlarni o'sha jihozga yopishtirish maqsadga muvofiq. Misol uchun door so'zini stikerga yozib, eshikka yopishtirib qo'yiladi va har safar eshikdan tashqariga chiqqanda bu so'z ko'zga tashlanadi va xotirada qoladi.

4-usul. So'z yodlaganda o'sha so'zning sinonim yoki antonimi bilan yodlashko'proq so'z yodlashga va eslab qolishga oson bo'ladi. Misol uchun: long - short, sun - moon, left - right. E'tibor beriladigan joyi shundaki, sinonimlarni yodlayotganda ularning asl ma'nolari bilan birgalikda yodlash kerak. Chunki har bir so'zning har xil ma'nolari bor: salbiy, ijobiy va hokazo. Agar so'zning ma'nosiga e'tibor berilmasdan yodlansa, bu albatta xato bo'ladi. So'zning ma'nosini bilgan holda yodlash, so'zni ko'proq tushunishga va oson esda saqlab qolishga yordam beradi. Misol uchun: nam, xo'l, shalobbo. Bu uchchala so'z o'zaro sinonim, lekin ma'nolari har xil. Agar nam so'zi ishlatiladigan joyda shalobbo so'zi ishlatilsa, bu albatta ma'noviy jihatdan xato hisoblanadi. Shuning uchun sinonimlarni ma'nosini tushungan holatda yodlab, ularni o'z o'rnila ishlatish yaxshi natija beradi.

5-usul. So'zlarni kombinatsiya uslubida yodlash. Kombinatsiya- bir turdag'i narsalarning birikmasi. Kombinatsiya usulida yodlash bir guruhga kiruvchi so'zlarni yodlash demakdir. Misol uchun: uy jihozlari, tana a'zolari, kiyimlar, musiqa asboblari va shunga o'xshash bir guruhga kiruvchi so'zlarni birgalikda yodlash. Misol uchun: tana a'zolari - parts of body: eyes, ears, head, nose, teeth, hand, foot...

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, so'zlarni xilma xil usullardan foydalangan holda yodlash kerak. Agar zerikarli usullardan foydalanib yodlansa, u ma'lumot miyada uzoq muddat davomida turmaydi. Maqolada keltirilgan usullardan foydalanib so'z yodlash, so'zni uzoq muddat davomida xotirada qolishiga va fanga bo'lgan qiziqishni oshirishda yordam beradi. Har bir insonning o'zining o'rganish uslubi mavjud. Shuning uchun maqolada keltirilgan usullardan ba'zilari uning usuliga mos kelishi va ba'zilari mos kelmasligi mumkin. Har bir shaxsda tanlash ixtiyori mavjud.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev "So'z yodlash sirlari". Toshkent 2015, "Istiqlol nuri" nashriyoti
2. Aziza, O., & Sevara, S. (2023). INGLIZ TILI ME'YORIY TALAFFUZ STANDARTLARINI O 'QITISH MEZONLARI. Involta Scientific Journal, 2(1), 138-141.
3. Sh.M.Rahmonov "Mukammal xotira". 2014-yil "Yangi asr avlodi" nashriyoti
4. [4.](https://fledu.uz/uz/ingliz-tilidagi-sozlarni-yodlashning-7-samarali-usuli/)
5. [5.](https://prep.uz/news/umumiyo/so-z-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari)